



HISTORICAL FEATURES OF JANDA FABRIC AND ITS PRESENT VALUE

Narziyeva Fatima Rustam kizi

Termez State University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19625761>

ARTICLE INFO

Received: 09th April 2026

Accepted: 16th April 2026

Online: 17th April 2026

KEYWORDS

Janda, outerwear,
weaving technology,
tanda, arqaq, fabric
properties, fabric
composition, fabric
thickness, weaving
methods.

ABSTRACT

This article covers the history and characteristics of janda fabric, and its current appearance has been updated. During the study of its history, it was learned that it has been made exclusively by hand for many years and that this has been passed down from generation to generation. It is woven in a traditional way, and it is made in tanda and arqaq. Janda fabric has been studied in ethnographic and textile research. It is beneficial for human health because of its very high air permeability. The article studies the composition, weaving method, appearance, thickness, and physical properties of janda fabric.

ИСТОРИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ТКАНИ «ДЖАНДА» И ЕЕ СОВРЕМЕННАЯ ЦЕННОСТЬ

Нарзиева Фатима Рустам Кизи

Термезский государственный университет

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19625761>

ARTICLE INFO

Received: 09th April 2026

Accepted: 16th April 2026

Online: 17th April 2026

KEYWORDS

Джанда, верхняя
одежда, технология
ткачества, танда,
аркак, свойства ткани,
состав ткани, толщина
ткани, методы
ткачества.

ABSTRACT

В данной статье рассматривается история и характеристики ткани джанда, а также обновлен ее современный облик. В ходе изучения ее истории выяснилось, что на протяжении многих лет она изготавливалась исключительно вручную и передавалась из поколения в поколение. Ткань ткется традиционным способом, в техниках танды и аркака. Ткань джанда изучалась в этнографических и текстильных исследованиях. Она полезна для здоровья человека благодаря своей очень высокой воздухопроницаемости. В статье рассматриваются состав, метод ткачества, внешний вид, толщина и физические свойства ткани джанда.

JANDA MATOSINING TARIXIY XUSUSIYATLARI VA HOZIRGI KUNDDAGI AXAMIYATI

Narziyeva Fotima Rustam qizi

Termiz Davlat Universiteti



ARTICLE INFO

Received: 09th April 2026

Accepted: 16th April 2026

Online: 17th April 2026

KEYWORDS

Janda, usti kiyim, to'qilish texnologiyasi, tanda, arqoq, mato xususiyati, mato tarkibi, mato qalinligi, to'qilish usullari.

ABSTRACT

Mazkur maqolada janda matosi tarixi va xususiyatlari turlari yoritilgan bo'lib hozirgi kunda uning ko'rinishlariga yangiliklar kiritilgan. Tarixini o'rganish davomida uning uzoq yillardan buyon faqat qo'lda tayyorlanishini va bu avlotdan-avlatga o'rgatilishi o'rganilgan. To'qilishi ananaviy usulda bo'ib, u tanda va arqoqda tayyorlanilgan. Janda matosi etnografik va to'qimachilik tadqiqotida o'rganilgan. Havo o'tkazuvchanligi juda yuqori bo'lganligi uchun inson salomatligi uchun foydalidir. Maqolada janda matosining tarkibi, to'qilish usuli, ko'rinishi, qalinligi, fizik xususiyatlari o'rganilgan.

Kirish: O'zbekistonning janubiy hududlari asosan Surxondaryo vohasining Boysun tumani atrofidagi mahallarda tayyorlaniladigan an'anaviy to'qimachilik maxsulotlaridan biri hisoblaniladi. U milliy hunarmandchilik namunasi bo'lib, asrlar davomida avlodlardan avlodga o'rganiladi. U juda qadimgi tarixga ega bo'lib hozirgi kungacha saqlanib kelmoqda. Surxondaryo hunarmandlari uzun yillar

davomida uni oddiy paxta ipidan, ba'zan ipak aralashmasidan qo'lda to'qib kelgan. Uning to'qilishi qo'l dasgohlarida naqshlari esa gazlama uslubida bo'ganligini kuzatish mumkin. Janda matosining nomi va albatta shakli bilan hududning mahalliy to'qimachilik makatblariga xos bo'lib, u qadim zamonlardan beri kundalik hayotda muhim o'rin tutib kelgan.



1-rasm "Janda matosining ko'rinishi"

"Janda" so'zi ba'zan eski, qalin qo'lda to'qilgan mato, usti kiyimlar ma'nosida ishlatilgan. Bu nom an'anaviy hunarmandchilik so'zlashuvida keng tarqalgan, biroq ilmiy lug'atlarda u faqat mato turi sifatida emas, balki kiyim nomi sifatida ham uchragan. XIX asrning ikkinchi yarmida Surxondaryo bozorlarida turli matolar - shu jumladan janda matosi, alacha matosi va shoyi va bo'z matolari to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarilgan va sotilgan. Janda matosi o'ta pishshiq va mustahkam, rangining uzoq vaqt saqlanishi bilan ajralib turgan. Buning sababi Surxondaryolik hunarmandlar matoni bo'yashda tog' giyohlaridan olingan

tabiiy bo'yoqlardan foydalangan. Shu kabilar bilan uning rangga bo'lgan bardoshligi ortadi. Undan tashqari ipda to'qilganligi uchun u juda mustahkam va havoni tanada yaxshi o'tqazadi. Odatda nisbatan dag'alroq bo'lganligi uchun ko'p hollarda ayollar va erkaklar ustki kiyimlari uchun ishlatilgan. Ustki kiyimlar mavsumga most qilib tayyorlanilgan bo'lgan. Ya'ni yoz va baxor mavsumda bir qavat astarsiz tikilgan bo'lsa, qish va kuz uchun mo'ljallangan ustki kiyimlari ikki qavatli astarli bo'gan ba'zida astarlar qo'l yordamida qavilgan. Bu harakat bilan havo haroratini tanada saqlash imkoniyatiga erishilgan. Ustki kiyimlar chopon, jelak, kurtalar hisoblanilgan. (2- rasm).



1-rasm "Ustki kiyim jandadan ishlangan"

Janda iplaridan qo'l dastgohda to'qiladi, keyinchalik ba'zan fabrikada yigirilgan iplar ham ishlatilgan. To'qilgan matoning naqshlari yo'l- yo'l (chiziq) va katak shaklida tartiblangan

bo'lib, har bir rangli ip o'z qalinligiga ega. Janda matosi nafaqat kundalik kiyim bo'lib xizmat qilgan, balki vohada hunarmandchilik mesosi sifatida o'z o'rniga ega bo'lgan. U ko'pincha erkaklar kiyimi, bolalar uchun bog'ichlar, uy bezak buyumlari kabi amaliy rollarda



ishlatilgan. XX asr boshlaridan boshlab sanoat mato ishlab chiqarishning kuchayishi yangi mato turlarining kirib kelishi natijasida ming afsuski janada matosining to'qilishi ancha kamayib ketishiga sabab bo'ldi. 1920- yillarga kelib u batamom yo'qolgan edi. Bugungi kunda Surxondaryo vohasida ayniqsa Boysun tumanida va qo'l san'atini no'rganishga ixtisoslashgan markazlarda janda matosi to'qish mashg'ulotlar olib borilmoqda bu kabi tashhabbuslar eas:

- An'anaviy hunarmandchilikni tiklash

-Yangi avlod hunarmandlarini o'qitish

-Hududiy madaniy merosni saqlash maqsadida amalga oshirilmoqda.

Hozircha janda matosi haqida maxsus so'nggi yangiliklar juda cheklangan ammo so'ngi paytlarda milliy hunarmandchilik hamda to'qimachilik sohasidagi yangilanishlar hamda hududiy e'tibor haqida bir necha so'nggi ma'lumotlar topish mumkin. Surxondaryo viloyati, xususan Boysun tumani janda to'qish bo'yicha hunarmandlarning soni sezilarli darajada oshgan. 2018- yilda bu hududda atiga o'ttiz nafar hunarmand bo'lsa, hozir ular 500dan ortiqqa yetgan. Juda ko'p mahalla aholisi an'anaviy hunar, shu jumladan janda matosi to'qish bilan shug'ullanmoqda. Aynan folklor jamoalarning liboslarida ham aynan bu matodan foydalaniladi. Sayyohlar ham Boysunda janda to'qish jarayonini kuzatib, ishtirok etmoqda. Hozirgi kunda hunarmandchilikni qo'llab-quvvatlash juda muhim ahamiyatga ega bo'lib kelmoqda. O'zbekiston bo'ylab milliy hunarmandchilik va qadimiy to'qimachilik an'analari saqlanishi va

rivojlanishiga davlat e'tibori oshmoqda, shu jumladan Surxondaryoda ham. Bu janda matosi kabi qadimiy to'qimachilik turlariga ijodiy va tijoriy hayotda yangidan e'tibor berishga olib kelmoqda bu hunarmandchilikning hozirgi kundagi rivojida ham ta'sir qilmoqda. O'zbekiston tekstil va kiyim sanoati so'nggi yillarda sezilarli o'sishiga erishmoqda: 2025-yilda tirikotaj matolar ishlab chiqarilishi 32,5% ga oshganini kuzatish mumkin. Surxondaryoning folklor-madaniy an'analari, jumladan janda matosi, mahalliy festivallar va xalq an'analari orqali muxlislar, sayyohlar e'tiboriga tushishiga ham ulgurgan. Bu esa hunarmandchilikning ommalashuviga yordam beradi. Hunarmandlarning sonini ortishi an'anaviy matolarning to'qilishining ortishiga hizmat qiladi. Bu esa yurimizning juda ham boy madaniy va moddiy madaniyatiga ega ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa: Janda matosi - bu faqat mato emas, balki Surxon vohasi va butun mintaqaning madaniy merosi va hunarmandchiligi tarixining bir qismidir. Uning qadimiy kelib chiqishi, qo'l to'qilishi, ijtimoiy roli hamda bugungi kunda qayta jonlanayotgan hunar sifatidagi ahamiyati hammasi ushbu an'anaviy to'qimachilik mahsulotining naqadar boy va qiziqarli tarixga ega ekanini ko'rsatadi. Shu sababdan ham hozirgi kunda milliylikka bo'lgan talab juda yuqori. Milliy matolarimizni zamon talabiga mostlab maxsulot ishlab chiqarish va undan foydalanish eng dolzarb masalalardan biriga aylanishga ham ulgurdi. Dizaynerlar bu kabi takliflarga most va xost bo'lgan maxsulotlarni yaratish va ishlab chiqarishni o'z oldiga qo'yishgan.



Yirik mintaqaviy pakazlarda ham shunga o'xshash takrorlanmas ijodiy ishlar bilan qatnashish va o'rin olish butun dunyoga

milliy matolar naqadar go'zalligini ko'rsatish va brend darajasiga chiqarish asosiy vazifadir.

References:

1. Raxmatullayeva D, Xodjayeva U, Ataxanova F. "Libos tarixi". - T.: Sano- Standart 2015.
2. Хасанбаева Г.К., Чурсина В.А. Костюм тарихи. - Т.: Узбекистан, 2002. - 320 б.
3. Н.Н.Кamilova, Z.I. Rakhimova, U.S. Raxmatullayeva "O'zbek milliy libosi va an'anaviy qadriyatlar" monografiyasi Toshkent 2018 yil
4. Шомухиддинова Л., Чурсина В., Комилова Х." Либослар тараккиёти тарихи". «Санъат» 2002. №3-Б39.
5. Abdujabbor Kabirov "Qadimgi Sharq tarixi", Toshkent-2016 "Tafakkur" nashriyoti;
6. Rahmonov M.H "Surxon vohasi aholisining an'anaviy kiyimlar va taqinchoqlari" International scientific journal «MODERN SCIENCE AND RESEARCH» VOLUME 3 / ISSUE 12 / UIF:8.2 / MODERNSCIENCE.UZ
7. "Boysun atlas of artistic crafts" A.Khakimov, E.Gyul, UNESKO OFFICE IN TASHKENT,29-b
8. E.Y.Mirzanazarova, XX asr O'zbekiston libos dizayni: asosiy bosqishlar va rivojlanish tamoyillari.Monografiya , "Lesson Press" nashriyoti , 2021, 233 -b
9. <https://lex.uz>